



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



6/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2024



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Yuldasheva D.N., Axtamova N.B.	O‘zbek tili qavm-qarindoshlik leksikasining diskursiv tahlili	3
Bobokalonov O.O., Jumayev A.A.	Linguistic features of phytomorphic and zoomorphic images in french and german fairy tales	10
Navruzova M.G.	O‘zbek xalq ertaklarida tibbiy birliklar	16
Jonridova S.Sh.	Tilshunoslikda implikasiya masalasining o‘rganilishi	20
Abdulxayrov D.P.	Ekskursiya nutqida kommunikativ ko‘nikmaning roli	26
Azimova S.Kh.	Intercultural pragmatic features of speech acts of expressing “surprises” in American culture	31
Fattoyeva Z.R., Botirova F.B., Quziyeva T.F.	Qishloq xo‘jaligiga oid terminlarning tuzulishiga ko‘ra turlari	35
Jalilov B.H.	Ingliz internet leksikonida paydo bo‘lgan neologizmlarning lisoniy tahl	39
Kdirbaeva U.K.	Sintaktik takroming lingvopoetik ahamiyati	44
Mansurova N.A.	Marketing va menejment terminlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘zlashmalari	48
Nuriddinova Sh.K.	Tibbiy eponimlarning morfologik-struktur tabiati	53
Ruziev Y.B., Qosimova Z.S.	The definition of punctuation and the role of punctuation marks in german	58
Qurbonova D.O.	Pragmatic features of advertisementy in the english language	63
Radjabquliyeva M.A.	Reklamalarning jahon va o‘zbek tilshunosligida tadqiqi masalasi	67
Tilavova M.A.	Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo‘llanilgan zid ma’noli ayrim birliklar	71
Sattorova Sh.Sh.	Modallik kategoriyasining tadqiq darajasi va talqini	75
Shamsiddinov T.G’.	Political discourse as an object of linguistic research on the examples of speeches of different presidents	79
Shamsiyeva S.R.	Tilning badiiy tasvir vositalari bo‘lmish metafora va metanimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	84
Karimov R.A., To‘xtayev N.N.	Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik tahlili	88
Yusupova D.Y., Furqatova M.F.	Elbek – jadidlar davrida yaratilgan birinchi lug‘atlar muallifi	93
Markova Y.S., Zokirova N.S.	The nature, causes and solutions of lexical problems in translation	98
Muxtorova D.F.	National-specific and culture relevant phraseological units in english and their cultural connotation	103
Samandarov R.D.	Abzaslararo bog‘lanishda applikatorlarning o‘rni	108
Ubaydova H.A.	Maqollardagi ichki antonimiyaning tuzilish jihatdan tadqiqi	113
Korshunova A.V.	Russian phraseological expressions with a phytonym component	118
Saidova N.A.	Frazeologik birliklarning milliy-ma‘daniy xususiyatlari va ularning nazmiy va nasriy asarlarda qo‘llanishi	123
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation analysis of islamic terms both in english and uzbek religious texts --prophets names translation	128
Jo‘rayeva M.M., Xayrullayeva U.A.	Gazeta sarlavhalarining pragmatik til vositalari (fransuz va o‘zbek gazetalari misolida)	132
Axmatova I.H.	Olot tumani etnotoponimlarining semantik tahlili	136
Gasimova I.A.	French linguists’ syntactic views	142
Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Nutqiy muloqotda lingvoma‘naviy birliklar	146

Расулова С.Г.	Макрополе «космоним» в топонимах русского и азербайджанского языков	152
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Rizayev N.S.	O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining jadidchilik harakati g'oyalari bilan hamohangligi (ijtimoiy – falsafiy tahlil)	155
Adizov B.T.	Ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalar faoliyatining xorij tadqiqotlaridagi tavsifi	159
Ahmadxojaev M.Z.	Legal basis of organizing the activity of a political leader	164
Asadova R.B.	O'zbekiston va Hindiston davlatlarining fan va ta'lim sohasidagi hamkorligi	168
Turg'unboeva D.A.	Migratsiyaning o'rganish borasidagi ilmiy amaliy tadqiqotlar	173
Ro'ziyeva G.S.	Madaniyat milliy o'ziga xoslik va milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida	179
Turgunbayeva D.A.	Study of the migration problem by uzbek scientists	183
Yusubov J.Q., Xusanova D.A.	Davlat fuqarolik xizmatchilarini shakllanishida ma'naviy-siyosiy dunyoqarashning o'rni	187
Musayev M.T.	Missionerlik va prozelitizm tahdidini bartaraf etish va uning strategik vazifalari	193
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A., Rahmatov M.M.	BXSR va Germaniyada moliyaviy holat va narx-navo: qiyosiy tahlil (1920-1924-yillar)	197
Qudratov Sh.Y.	Buxoro jadidlarining tadbirkorlikka oid yondashuvlari	201
Radjabova N.M.	BXSRda musiqa ta'limi va qo'shiqchilik san'ati	205
Xamrayev I.M.	Buxoro shahri hayoti va suv xo'jaligi tizimida Labi hovuz ansamblining tutgan o'rni	209
Гадоев Д.Х.	“Халифа Худойдод” жомеъ масжиди тарихи	213
Зарипов С.Дж.	Переселенческая политика Узбекистана под влиянием советов, трудовые ресурсы промышленности и сельского хозяйства	218
Niyozova M.I., Djumayeva S.S.	Buxoro muzeyi qo'riqxonasi eksponatlari to'plamidagi o'rin olgan ossuariylar	222
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F., Qahhorov X.X., Umrzoqov J.B.	Korxonalar boshqaruv faoliyatini baholashning xorij mamlakatlar tajribasi	226
Salimov A.F., Xolmatova M.S.	Iqtisodiyotning real sektorini isloh qilish va takomillashtirish istiqbollari	231
Salimov A.F., Shokirova D.O.	Korxonalarining asosiy faoliyatini baholash tizimini boshqarishni takomillashtirish	235
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Ubaydullaev S., Begmuradov Sh.D.	Possibilities to increase educational efficiency of students in physics through organizing virtual laboratories	240
SAN'AT*** ART *** ИСКУССТВО		
Bayramov M.A.	Memar ajami's creative works as a historical and cultural heritage	246
Huseynova R.H.	The historical development path of polyphonic series and its implementation in the creativity of azerbaijan composers	252

O'ZBEK TILI QAVM-QARINDOSHLIK LEKSIKASINING DISKURSIV TAHLILI

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,

Buxoro davlat universiteti professori, p.f.nomzodi

yuldasheva21dilorom@gmail.com

ORSID 0000-0003-1976-5575

Axtamova Nigora Baxtiyorovna,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

axtamova89nigora@gmail.com

Annotatsiya. Dunyo lingvokulturologiyasida til va madaniyat, til va ma'naviyat, til va muloqot munosabati masalalariga e'tiborning kuchayganligi ularni o'zida yaqqol aks ettiruvchi nutqiy birliklarni kengroq o'rganilishini taqozo etmoqda. Milliy-madaniy qadriyatlar aks etadigan lingvistik birliklarda, jumladan, qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksik ifodalarning ma'lum bir millat a'zolari nutqida uchrashi, olamni anglashning kognitiv jarayonlarida faol ishtirok etadigan iks-femiya hodisasi, uning qo'llanish ko'lami, kontekstual-situativ shartlanishi, variativ tabiatining metakommunikativ mohiyati, qolaversa, mazkur millat dunyoqarashi, mentalitetining o'ziga xosligini aks ettiruvchi madaniy kod sifatidagi rolini aniqlash kognitiv tilshunoslik sohasining ilmiy talqin doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bu o'zbek tili lisoniy hodisalarining nutqiy voqelanishlarini sharqona an'analar, qadriyatlar, lingvokulturologik, lingvoma'naviy, kognitiv-mental, urfiy madaniyat negizlari nuqtayi nazaridan ilmiy baholash imkonini beradi. Zero, o'zbek nutqidagi qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksik birliklarni badiiy asarlar orqali aniqlash va ularning kontekst talabiga ko'ra xilma-xil leksik-semantik munosabatlarda namoyon bo'lishini dalillash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nutqiy voqelik, diskurs, lingvoma'naviyat, lingvomadaniyat, qavm-qarindoshlik leksikasi

ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ РОДСТВЕННОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Повышенное внимание к вопросам языка и культуры, языка и духовности, языка и общения в мировой лингвокультуре требует более широкого изучения речевых единиц, четко их отражающих. В языковых единицах, отражающих национально-культурные ценности, в том числе при встрече лексических выражений, выражающих этническое родство, в речи представителей определенного народа, явление икс-фемии, активно участвующее в когнитивных процессах познания мира, имеет сферу применения. его употребления, контекстно-ситуационной обусловленности, метакоммуникативности вариантного характера, а также определения его роли как культурного кода, отражающего своеобразие мировоззрения и менталитета данного народа, служит расширению сферы научной интерпретации в области когнитивной лингвистики.

Также это позволяет научную оценку речевых явлений узбекского языка с точки зрения восточных традиций, ценностей, лингвокультурных, лингводуховных, познавательно-ментальных, традиционных культурных основ. Ведь важно выявить лексические единицы, выражающие этническое родство в узбекской речи через художественные произведения, и доказать, что они проявляются в различных лексико-семантических отношениях в зависимости от контекста.

Ключевые слова: речевая реальность, дискурс, язык-духовность, язык-культура, этнородственная лексика.

DISCOURSE ANALYSIS RELATED VOCABULARY IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. Increased attention to issues of language and culture, language and spirituality, language and communication in world linguistic culture requires a broader study of speech units that clearly reflect them. In linguistic units reflecting national and cultural values, including when encountering lexical expressions expressing ethnic kinship in the speech of representatives of a certain people, the phenomenon of x-femia, actively participating in the cognitive processes of cognition of the world, has a scope of application. its use, contextual and situational conditionality, metacommunicativeness of a variant nature, as

well as the definition of its role as a cultural code reflecting the originality of the worldview and mentality of a given people, serves to expand the scope of scientific interpretation in the field of cognitive linguistics.

This also allows for a scientific assessment of the speech phenomena of the Uzbek language from the point of view of eastern traditions, values, linguocultural, linguo-spiritual, cognitive-mental, traditional cultural foundations. After all, it is important to identify lexical units that express ethnic kinship in Uzbek speech through works of art, and to prove that they manifest themselves in various lexical-semantic relations depending on the context.

Keywords: speech reality, discourse, language-spirituality, language-culture, ethnic-related vocabulary.

Ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlangan [1] va hozirda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizm strukturalizmning tilni tadqiq etishga xos “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e‘tiborini shaxs omiliga qaratdi [2;4]. Zero, antropotsentrizm atamasi yunoncha *anthrōros* – odam hamda lotincha *sentrum*– markaz ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lganki, bu o‘rta asrlarda qadimgi yunon falsafasining Yevropada keng tarqalgan “Koinot markazida inson turadi” degan tezi bilan bevosita aloqador. Falsafa, tilshunoslik, psixologiya kesishuvdagi mazkur tezis dunyo tilshunosligida lingvofilosofiya, lingvodialektika, pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopsixologiya kabi sohalarining yuzaga kelishi va rivojlanishiga, shuningdek, bu borada jiddiy nazariy qarashlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Xususan, diskurs tahliliga antropotsentrik nuqtayi nazaridan yondashish bugungi tilshunoslikning muhim muammolaridan biriga aylandi.


Nutq yaratuvchi shaxsga e‘tibor qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funksionalizm, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan deb hisoblaydi. Rus tilshunosi Y.N.Karaulov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek: “Har qanday nutqiy matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi” [5]. Haqiqatan, tafakkur, lison, nutq va shaxs munosabatlarini yoritishda muhim manba vazifasini diskursning tarkibi bo‘lgan matnlar, jumladan, badiiy matnlar bajaradi. Zero, u lisoniy birliklarning muayyan nutqiy sharoitga mos voqelanishini ta‘minlovchi tuzilma bo‘lishi bilan birga, so‘zlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy salohiyatini o‘zida to‘la namoyon etuvchi nisbiy butunlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demak, diskurs tarkibiga kiruvchi badiiy matnlar muayyan millatga mansub til sohiblarining lingvomilliy hamda lingvomadaniy munosabatlarini aks ettira oladigan o‘ziga xos muhimlikdir.

O‘zbek tilshunosligida substansial paradigma o‘zidan oldingi formal (an‘anaviy) tilshunoslikning, professor Sh.Safarov ta‘biri bilan aytganda, “atomistik”, ya‘ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi” [5]. Aniqrog‘i, nutqiy bosqichdagina amalga oshirilgan tahlil natijalarini “lison-nutq” dixatomiyasi tizimida qaytadan ko‘rib chiqdi, sistemalashtirdi. Antropotsentrik paradigmanning vujudga kelishini soha mutaxassislari: “Bu ikki paradigmanning umumiy kamchiligi borligi ham ma‘lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo‘ldi” [5], deb izohlashadi.

Darhaqiqat, inson (shaxs) omilisiz lison va uning nutqiy voqeligi o‘zining har qanday qimmati yoki muhim xususiyatini namoyon eta olmaydi. Zotan, istalgan tilning shakllanishi, takomili va taraqqiyoti uning sohibi(egasi)ga bog‘liq. Ayni raytda, professor N.Mahmudov ta‘kidlaganidek: “...til ham inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi” [4]. Demak, mohiyatga ikki tomonlama yondashish zarur: muayyan tilning yaralishi, takomili va taraqqiyoti bevosita uning egasiga bog‘liq, shuningdek, istalgan insonni shaxs sifatida yuksaltiruvchi, jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi eng muhim omil uning tafakkur tili va ona tilidagi nutqdir. Buni chizmada quyidagicha ifodalash mumkin (Qarang: 1-chizma):

1-chizma

Shaxs ~ til (lison) ~ nutq taraqqiyotining uyg‘unligi




Demak, lingvistik nuqtayi nazardan yondashilganda, antropotsentrik paradigma markazida nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasi turadi. Aytish joizki, ilmiy paradigmada "til egasi" kategoriyasining faollashuvi tilshunoslikda shaxs, uning tafakkuri, lisoniy qobiliyati, nutqiy voqelik, milliylik, mentallik, milliy hamda unuminsoniy til madaniyati kabi tushunchalar mushtarakligini chuqurroq anglashni va bu tilshunoslikning falsafa, psixologiya, mantiq, madaniyatshunoslik, ma'naviyatshunoslik kabi sohalar bilan bir nuqtada kesishishiga ham e'tibor qaratishni taqozo etyarti.

Zotan, inson uning o'zidan, o'zligidan, tafakkuri-yu shuuridan, o'y-xayol, fikr xulosalaridan, tili va nutqi(so'zlovchi yoki yozuvchiligi)dan, shuningdek, nutqni idrok etish (tinglovchilik) qobiliyatidan tashqarida yashamaydi. Jaloliddin Rumiy yozganlaridek: "Inson ko'rinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha garirib turadi". Demak, bu borada nafaqat shaxs ~ til (lison) ~ nutq munosabati, balki shaxs ~ tafakkur ~ til (lison) ~ nutq munosabati zanjiri jamiyat ichida uyg'unlashadi (Qarang: 2-chizma):

2-chizma

Jamiyat ~ shaxs ~ tafakkur ~ til (lison) ~ nutq munosabati uyg'unligi



Odatda, jamiyat kishilari o'rtasidagi nutqiy muloqot nutqning turli ko'rinishlari, jumladan, verbal (nutq tovushi, morfema, leksema, so'z birikmasi, gar hamda uning (sodda, qo'shma, murakkab sintaktik butunlik kabi) shakllari va noverbal birliklar (imo-ishoralar, mimikalar, suhbatdoshning maneralari, simvollar, ohang, sukut) orqali yuzaga chiqadi. Bir tomondan, kishi nutqi uning jamiyat belgilagan odob-axloq me'yorlariga qay darajada mosligini ifodalasa, ikkinchi tomondan, uning kishilik jamiyatidagi shaxslarga ta'siri masalasi yechimi bilan bog'lanadi. Tabiiyki, bu ta'sir didaktik, etik, estetik, ijtimoiy-siyosiy, psixologik, huquqiy, diniy, milliy, hatto unumbashariy jihatlar bilan uyg'unlashib, ijobiy/salbiy/neytral holatda bo'lishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslik hozirda "til egasi", "nutq sohibi" tushunchalarini quyidagi ma'nolarda ishlatilmoqda: 1) lisoniy birliklar va ularning voqelanish imkoniyatlaridan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant (suhbatdoshlar: so'zlovchi, tinglovchi) ; 2) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya'ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs; 3) o'zi mansub millatning milliy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug'at tarkibidan xabardor, undan saviyasi darajasida foydalana oladigan shaxs; muayyan til vakili.

“Til egasi, uning nutqi va til” masalasiga turli fan sohalari o‘z mohiyatidan kelib chiqqan holatda yondashadiki, natijada “til egasi”, “nutq sohibi” tushunchalari mustaqil serqirra paradigma sifatida mustahkamlanib boraveradi. Bu, ayniqsa, antropotsentrik yondashuv asosida shaxs omilining nutqiy faoliyati tadqiqi bilan bevosita shug‘ullanuvchi psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika kabi sohalarda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Shu o‘rinda diskurs atamasi xususida ham biroz to‘xtalamiz.

Diskurs atamasi tilshunoslik bilan bir qatorda falsafa, antropologiya, adabiyotshunoslik, etnografiya, sotsiologiya, psixolingvistika, kognitiv psixologiya kabi qator fanlar doirasida ham keng qo‘llaniladi. “Matn lingvistikasining qisqacha lug‘ati” ma‘lumotiga ko‘ra, “diskurs” atamasi dastlab fransuz tilshunosligida nutq yoki matn ma‘nosida ishlatilgan [7]. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik nutq, nutq matni va diskurs tushunchalarini bir-biridan keskin farqlaydi. Zero, substansial tilshunoslikning “lison~nutq dixatomiyasi”ni bir-birini taqozo etuvchi, ayni raytda o‘zaro orozitsiyada turuvchi sistemalar sifatida talqin etishi diskurs atamasi mohiyatiga ham katta ta‘sir o‘tkazdi [3].

E.S.Kubryakova, M.L.Makarov, L.A.Manerko, V.V.Krasnix, V.I.Karasik, Y.E.Proxorov tadqiqotlaricha, dastlab diskurs matnning o‘zi deb qaralib, bu ikki atama o‘zaro sinonim sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik diskurs matn lingvistikasining bir qismi sifatida talqin etilgan. Hatto M.L.Makarov diskursga kategoriya sifatida baho bergan [3]. Golland olimi Van Deyk: “Diskurs – matndan tashqari, o‘sha matnni tushunishga yordam beruvchi dunyo haqida tasavvur, tushuncha, suhbat jarayoni, uning maqsadi, nutqiy shart-sharoit kabi ekstralingvistik omillardan iborat murakkab kommunikatsiyadir”, deya ta‘riflaydi [8] va ilk marta diskursning nutqdan, matndan kattaroq tushuncha ekanligiga ishora qiladi. Kuzatishlarimizcha, V.Z.Demyankov, J.Martin, D.Rouz, M.Fuko, D.Shiffirin, D.Tennen va H.Hamilton kabi yevropalik olimlarning qarashlarida ham diskurs matnga teng yoki unga sinonim hodisa sifatida emas, balki undan ko‘ra kengroq ma‘noga va xususiyatlarga ega tushuncha sifatida baholangan.

S.Dovlatov ta‘biri bilan aytganda: “Jamiyatdagi shaxsning to‘qson foizini til tashkil etadi”ki, inson tafakkuri sarhadlarini uning tili, nutqi va lisoniy qobiliyatisiz tasavvur etish mumkin emas. Shu yondashuvda diskurs ekstralingvistik, ijtimoiy, milliy, madaniy, kommunikativ, situativ omillar asosida yuzaga kelgan istalgan nutq, uning mahsuli (matn), nutqiy shart-sharoit, kommunikantlar maqsadi kabilarning barcha-barchasini qamrab oluvchi, tugallanganlik, butunlik, bog‘liqlik kabi xususiyatlarga ega alohida tizimdir. Zero, diskurs o‘zida kommunikantlarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlari, baholash ma‘lumotlari, muloqot qiluvchilarning bilimlari, saviyalari, ijtimoiy mansubligi, muloqotdan ko‘zlagan maqsadlarini yuzaga chiqaruvchi, ijtimoiy-madaniy vaziyatni, unga tegishli ijtimoiy hayot normalari hamda qadriyatlarini ham ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi.

Shuningdek, diskurs, T.A.Van Deyk aytganidek: “nafaqat umumga tegishli ijtimoiy xususiyatlarni, milliy jihatlarni ifodalaydi, balki unda yakka shaxsga xos xususiy madaniyat va mentalitet ham aks etadi” [8].

Tilni ijtimoiy kontekstda qo‘llovchi diskursning muhim xususiyatli uning kommunikativligi va dialogik tabiati mavjudligi bilan xarakterlanadi. Diskurs hodisasi bilan qiziqqan aksariyat tadqiqotchilar uning kommunikativlik xususiyati haqida so‘z yuritganda muloqotning ikki ishtirokchi – so‘zlovchi va tinglovchining mavjudligiga, muloqot davomida ularning rollari almashib turishiga asoslanishini inobatga olishadi va monologik nutqni diskursdan tashqarida deb hisoblashadi. Aslida, M.Stabbs hamda Yakobsonlarning qarashlariga tayangan holatda ayta olamizki, monologni birgina ishtirokchi, ya‘ni so‘zlovchidan iborat deb tushunish yanglish holat, chunki monolog ham aslida so‘zlovchi tomonidan kingadir qaratilgan bo‘ladi. Nutq qaratilgan shaxsga u qachon yetib borishidan qat‘i nazar, u diskurs sifatida mavjud bo‘ladi. Xullas, diskursni nutqiy muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy, milliy, etnografik, psixologik jihatdan umumiy hamda xususiy mohiyat kasb etuvchi, pragmatik va kognitiv vazifalarni hal qilishga qaratilgan o‘zaro ta‘sir vositasi sifatida tushunish o‘rinli.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarida diskursning ilmiy, badiiy, publisistik, siyosiy, harbiy, diniy, iqtisodiy, pedagogik, tanqidiy, o‘quv, reklama kabi qator tiplari ajratiladi va diskurs ijtimoiy hayotning inson faoliyati bilan bog‘liq har qanday jabhasiga taalluqli ekanligi e‘tirof etiladi. Bu esa diskursning janr jihatdan turlanishiga sabab bo‘lishi tabiiy hol. Xullas, diskurs o‘zida kommunikativlik, interaktivlik, psixologik xususiyatlarni aks ettirib, tilning ma‘lum ijtimoiy kontekstda ishlatilishi bilan ahamiyatli.

O‘zbek tili qavm-qarindoshlik leksikasining diskursiv tahlili deganda muayyan kontekstda, jumladan, badiiy matnlarda ifodalangan qavm-qarindoshlikka oid shaxs otlarining tadqiqini nazarda tutadi.

O‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik munosabatini bildiruvchi *farzand, ota, ona, amaki, ini, uka, aka, singil, ora, og‘a, amma, tog‘a, pochcha, o‘g‘il, qiz, nevara, xola, bobo, buvi* kabi so‘zlarning ma‘no ko‘rinishlari bir umumiy leksik-semantik guruhni tashkil etadi. I.Ismoilovning yozishicha, o‘zbek tilidagi

qavm-qarindoshlik terminlari o'zlarining kelib chiqishi va ma'nosiga ko'ra, asosan, uch katta leksik-semantik guruhga bo'lib o'rganilmoqda:

1. Qon-qarindoshlik terminlari.
2. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari.
3. Yaqinlik nomlari [9].

Qon-qarindoshlik leksikasiga o'zbek tilida *ota, ona, aka, uka, tog'a, xola, bobo (buva), buvi (momo), amma, nevara (nabira)* kabilar va ularning shevalarda qo'llaniluvchi variantlari kiradi. Masalan,

ota qon-qarindoshlik leksikasi:

Otajon!

Men axir qutlug' bu so'zni

Yigirma yil olmadim tilga,

Yigirma yil saqladim dilda.

Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,

So'ylang, eshitaman.

Vujudim tilka... (E.Vohidov. "Nido" dostonidan)

Keltirilgan misolda yigirma yashar yigit urushda halok bo'lgan otasi ruhiga murojaat etmoqda. O'zbek oilalari uchun "buyuk shodlik", "bir nasiba" (G.G'ulom) bo'lmish *ota* degan nomning naqadar ulug'ligi, yuksakligi "Nido" dostonining bosh qahramoni bo'lgan bola (farzand) tilidan bayon etiladi. Doston syujetida *ota* qon-qarindoshlik leksikasi mazunan va shaklan uning varianti bo'lgan *dada* shakliga almashtirilgan o'rinlar ham uchraydi:

«**Dadajon!**»

Men sizni juda sog'indim.

Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.

Kelib qolarmishsiz ertami-indin,

Ayam shunday dedi,

Rostmi shu, ayting?!

Dada,

U kun sizni tushimda ko'rdim.

Oq otda keldingiz,

So'radingiz suv.

Men buni ayamga garirib berdim.

Dadang keladi, deb aytdi, Rostmi shu?.. (E.Vohidov. "Nido" dostonidan)

Otasining jang maydonlaridan uyiga yuborgan xatlarini o'qishdan savod chiqargan bola "oro berib katta-katta harflari"ga dadasiga xat yozmoqda. Bolalar, odatda, o'z otalariga erkalangan, yalingan, iltimos qilgan holatlarida ularga "dadajon"/"adajon"/"otajon" deb murojaat etishsa, gaplari jiddiy bo'lgan paytlarda, ularni bola hisoblab, aytganlarini e'tibordan chetda qoldirishlarini istamagan kezlarida "dada"/"ada"/"ota" shakllarini qo'llashadi. Bola ota mehriga tashna. Shu bois, *dadajon* deb murojaat boshlagan bola, otasidan tezroq uyga qaytishini so'raganda jiddiy tortadi: murojaat shaklini "*dadajon*"dan "*dada*"ga almashtiradi.

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda nutqiy faoliyat jarayonida keng qo'llaniladigan, kishilarning o'zaro aloqa-aralashuvida muntazam foydalaniladigan, ba'zan so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini yuzaga chiqaradigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir ta'sirchan vositalar hisoblanishi ma'lum.

O'zbeklar nutqida *ota* qon-qarindoshlik leksikasi o'zining asl mazmunidan uzoqlashib yoshi katta erkak kishilarga nisbatan hurmat ma'nosini ifodalovchi murojaat shakliga ham aylanadi. Masalan,

Otabek mehmonlarni tanchaga o'tquzib fotihadan so'ng Hasanalidan so'radi:

– *Tuzikmisiz, ota?*

– *Xudoyga shukur, – dedi Hasanali, – boyagidan biroz yengilladim... Mazmuni is tekkan ekan.*

– *Ba'zi yumushlar buyursam...*

– *Buyuringiz, o'g'lim.*

– *Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib beringiz-chi.*

– *Xo'b, begim.*

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qayta sog'liq so'rashqandan keyin so'radi:

– *Bu kishi kimingiz bo'ladilar, bek aka?*

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:

– *Qulimiz.* (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar" romanidan)

Asarda boy savdogar yigitning o'z quliga, xizmatkoriga *ota* deb murojaat etishi, unga hurmat yuzasidan avaylab ish aytishi bu – Otabekning yaxshi tarbiyasidan, insoniylik darajasi yuqoriligidan darak beradi. Shu o'rinda *ota* qon-qarindoshlik leksikasi o'zining asl mazmunidan uzoqlashgan va asar qahramoni Otabekning otasi tengi Hasanaliga nisbatan hurmat belgisini ifodalovchi murojaat shakliga aylangan.

Yer – ona, suv – ota,

Mehnat – boylik. (Maqol)

Mazkur maqolda, ko'rinib turganidek, *ota, ona* kabi qon-qarindoshlik otlari qiyosiy figuralarga aylangan. Bu holatni “*Obro'ning onasi – mehnat, otasi – sa'yi harakat*”, “*Hamma narsaning otasi – mehnat*”, “*Otang – tarozi, onang – tarozi*”, “*Otang – bozor, onang – bozor*” kabi qator maqollarda ham uchratish mumkin.

Ba'zan *ota* shaxs oti o'zidan oldin salbiy ma'no ifodalovchi sifatlovchi qabul qilgan o'rinlarda o'zbek ijtimoiy hayotida yuksak mavqe egallaydigan, keng qamrovli ijobiy sifatlarni o'zida jamlagan *ota* leksemasi yuzaga chiqaradigan mazmundan chekinadi va, shunchaki, biologik ota maqomidagi kishi ma'nosini ifodalaydi. Masalan, “Darakchi” gazetasi sarlavhalarida quyidagilarni kuzatamiz: “*O'z farzandining umriga zomin bo'lgan qotil ota*”, “*Oilasini xo'rlagan zolim ota*”, “*Aroqxo'r ota*”, “*Benomus ota*” va h.

Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik leksemalarini *er, xotin, kuyov, kelin, yanga, pochcha, boja, ovsin, qayinona, qayinota, qayinopa, qayinaka, qayinuka, qayinjivan, qayinsingil, quda, qudaxola, qudabuva (qudabobo), qudabubi (qudamoma), o'gay ota, o'gay ona, o'gay bola, o'gay o'g'il, o'gay qiz, o'gay singil, o'gay aka, o'gay uka, o'gay bobo, o'gay buvi* singari shaxs otlari tashkil etadi. Masalan, *xotin*, odatda, nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik leksikasi sifatida ishlatiladi. Jumladan,

Aytgan so'zlarim uchun,

Qilavermang malomat.

Mayli,

Kelganda ham qiyomat,

Erni xotin boqmasin. (Xalq qo'shig'idan)

Keltirilgan misolda *xotin* leksemasi *er* so'zi bilan birga qo'llanilgan va nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik ma'nosini yuzaga chiqara olgan. Shuningdek, *xotin* so'zi turmush o'rtog'i(erkak)ning nomi bilan qo'shib ishlatilganda ham nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik ma'nosini voqelantiradi. Jumladan,

Safar bo'zchi boya Sultonaning xotini kelganda, Qobilboyning niyatini eshitib xotirjam bo'lganini so'zladi. (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon” asaridan)

Gulshanni olaylik. Bir vaqtlar kimsan, Xudoyorxonning xotini edi. Keyin bir navkarga tegib, yana hayotini bir qulay izga solish uchun sobiq eriga mahallama-mahalla izg'ib qiz tanlaydi... (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon” asaridan)

Aksariyat hollarda *xotin* leksemasi nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik ma'nosini emas, balki jins yoki turmush qurgan ayol semalarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan,

O'choq boshida qo'polg'ina, qirq besh yoshlar chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho'risi – To'ybeka. (A.Qodiriy. “O'tkan kunlar” romanidan)

Uxlamaydi tunlari,

Oy nurlari taralgan.

O'zbekning xotinlari

Farzand uchun yaralgan.

Yildan uzun kunlari,

Kim ko'nglini so'rolgan.

O'zbekning xotinlari

Mehnat uchun yaralgan. (M.Yusuf she'ri)

Keltirilgan misollarda, shuningdek, “*Aqlsiz xotin husnini ko'z-ko'z qilar, aqlli xotin –aqlini*”, “*Hunari yo'q erkakdan ignasi bor xotin yaxshi*”, “*Kek xotinga yarashar*”, “*Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham – xotin*”, “*Uyga palos yarashar, xotinga – libos*” kabi xalq maqollarida ham *xotin* leksemasi jins, turmush qurgan ayol semalarini (ma'nolarini) yuzaga chiqargan.

Odatda, yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruhga kiruvchi leksemalar yuqoridagi ikki guruhga mansub birliklar oldidan “*tutingan*” so'zini keltirish va shaxs otiga egalik qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi: *tutingan ota+m, tutingan ona+ng, tutingan qiz+i, tutingan o'g'li+m, tutingan aka+ng, tutingan uka+si, tutingan opa+m, tutingan singli+ng, tutingan kuyov+im, tutingan kelin+ing, tutingan tog'a+si, tutingan amma+m* va h.

Masalan, *Ota-onalar qarovsiz qolgan bolani tarbiya qilish uchun olishni istaydigan fuqarolar tutingan ota-onalar deb ataladi, ushbu oila esa farzandlikka olgan oila hisoblanadi.* (<https://advice.uz/>)

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Demak, qavm-qarindoshlikni ifodalovchi shaxs otlari o'zbek tili lisoniy hodisalarining nutqiy voqelanishlarini sharqona an'analar, qadriyatlar, lingvokulturologik, lingvoma'naviy, kognitiv-mental, urfiy madaniyat negizlari nuqtayi nazaridan ilmiy baholash imkonini beruvchi birliklar hisoblanishini e'tibordan qochirmaslik muhim. Zero, nutqiy muloqotdagi qavm-qarindoshlikni ifodalovchi birliklar semantikasi keng qamrovli, kontseptual asosiga ko'ra xilma-xil, pragmatik hamda psixolingvistik jihatdan o'ziga xos assotsiativ maydon hosil qiladi. Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi birliklar fenomeniga olanning lisoniy manzarasini yoritishda, lisoning mental xususiyatlari, tushunchalarni anglashning kognitiv asoslarini tahlil qilishda, leksema semantikasidagi tarixiy lingvistik jarayonlarni izohlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi o'zbek lingvoma'naviyatining ajralmas qismi sifatida qarash zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Воркачев С.Г. *Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.*
2. Маслова В.А. *Лингвокультурология. – Москва: Academia, 2001. – С. 17.*
3. Макаров М.Л. *Основы теории дискурса. – Москва: Гнозис, 2003. – С. 58.*
4. Махмудов Н. *Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.*
5. Караулов Ю.Н. *Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – Москва: Наука, 1989. – С. 3-8.*
6. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 35.*
7. Николаева Т.М. *Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы// Лингвистика текста. – Москва, 1978. – № 8. – С.467.*
8. Ван Дейк Т.А. *Язык. Познание. Коммуникация. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 7.*
9. Исмоилов И. *Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В.14-5.*
10. Yuldasheva D.N. *Hozirgi o'zbek adabiy tili (1-kitob). – Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023. – 140 b.*
11. Yuldasheva D.N. *Silence-is a nonverbal unit of speech communication//American Journal of Research, 2020. –11-12 issue of the Journal. – Pag.87-95.*

2030 | UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



Google
scholar



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
05.06.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344